

QADIMGI YOZUVLAR TARIXI
Jumanazarova Saida Rustambek qizi
CHDPU 2-bosqich talabasi
Shofqorov Abdushukur Musayevich,
CHDPU O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi turkiy yozuvlar, ularning kelib chiqishi, shakllangan davri va bu yozuvlarda yozilgan asarlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: piktografik yozuv, ideografik yozuv, magik, tamg'alar, paleografik kuzatuvlar, o'rxun-enasoy, uyg'ur, moniy, sug'd, brahma, suryoniy yozuvlari.

Annotation. This article discusses the ancient Turkic writings, their origin, period of formation and works written in these writings.

Key words: pictographic writing, ideographic writing, magic, stamps, paleographic observations, Orhun-Enasai, Uyghur, Moni, Sugdian, Brahma, Syriac writings.

Inson tug'ilibdiki, o'z vatan tuyg'usi va o'z ona tili bilan ulg'ayadi. Ona tili haqida gapirishdan avval, qadimgi tillar, qadimgi yozuvlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki hozirgi kundagi har bir shakllangan va shakllanmagan til va yozuvlar o'zining uzoq va qadimiy tarixiga ega. Tilning shakllanishida bevosita yozuvning ahamiyati kattadir. Yozuvlar haqida gapirganda, eng avvalo, qadimgi yozuvlarga to'xtalishni joiz deb bildik.

Qadimgi yozuvlarni o'rganish va tadqiq etish XIX asrning birinchi yarmida sezilarli darajada rivojlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, G'arb olimlaridan N.Marr va Meshchaninovlar ilk bora o'z fikr va qarashlarini ilgari surishgan. Ularning qarashlari bo'yicha tilning ikki turi mavjud:

- 1) tovush tili;
- 2) yozuv tili.¹

Ikkalasi ham bir-biri bilan bog'liq bo'lib rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Yozuvlarning dastlabki bosqichi bu piktografik, ideografik yozuvlardir. Ilk yozuvlar "imo-ishoralar" tili deb ham nomlangan. Shu bilan bir qatorda ular magik (sehr-jodu) vazifasini bajarishgan. Amerika tilshunosi G.Malleri, chex tilshunosi Ch.Laukotka hamda xitoy tilshunosi Chjon Chjen-Minlar N.Marr va Meshchaninov fikrlarini qo'llab-quvvatlaganlar.

¹ Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 16-b.



Qadimgi yozuvlardan Misr yozuvi va Shummer mixxatlari juda mashhur hisoblanadi. Misr yozuvining o'ziga xos jihati shundaki, ikki usulda gorizontal holatda o'ngdan chapga yoki vertikal holatda yuqoridan pastga qarab yozilgan. Misr yozuvi va shummer mixxatining farqli tomoni misr yozuvi papirusga, shummer mixxati esa loy taxtachalarga bitilgan. Bu yozuvlar Sharqda keng tarqalgani uchun "Qadimgi sharqning lotin yozuvi" nomini ham olgan. Qadimgi turkiy yozuvlar ko'k turk, uyg'ur, moniy, sug'd, brahma va suryoniy yozuvlaridir.²

Avvalo, dunyoga mashhur bo'lgan ko'k turk yozuviga to'xtalsak. Bu yozuvning shakllangan davri va ildizlari haqida aniq bir dalillar mavjud emas. Hozirgi kunga qadar o'rganilmoqda. Ba'zi olimlar ko'k turk yozuvini tamg'alar (urug'-qabila belgilari) ga bog'lashadi. Boshqa bir fikrda esa bu yozuv oromiy yozuvi, ya'ni sug'd xati asosida shakllangan. Ko'k turk yozuvi oromiy, sug'd va pahlaviy yozuvlarining kuchli ta'sirida bo'lgan.

Paleografik kuzatuvlar natijasida A.Amanjalov ushbu yozuvning tarixi miloddan avvalgi I ming yilliklarga yaqinligini aytib o'tgan.

Sug'd alifbosida 22 ta harf mavjud. Uyg'ur alifbosida esa 23 ta harf. Lekin ko'k turk matnlarida esa 38-40 ta deb topib o'rganilgan. Ammo ba'zi manbalarda 40-44 atrofida ham deb ketilgan.³

O'rxun yozuvi turkshunoslikda va yozuv tarixiga oid asarlarda "O'rxun-Yenasoy yozuvi", "Yenisey-O'rxun yozuvi", "Sibir yozuvi", "turkiy run (a) yozuvi", "ko'k turk yozuvi" deb yuritiladi. Ilk bor bu yozuv 1721-yilda D.Messershimdt, 1818-yilda Oltoyda G.I.Spasskiy, 1879-yilda Tuvada G.N.Potanin tomonidan topib o'rganilgan. 1889-yilda Mo'g'ulistonda N.M.Yadrinsev Kulteginga bag'ishlangan yodgorlikni topadi va urxun yozuvi termini shu orqali kelib chiqadi. 1889-yilda I.R.Aspelin esa buni yenisey yozuvi deb ataydi va shu orqali umumlashtirilib urxun-yenisey yozuvi deb bitta nom berishadi.

Yevropada bu alifboning kelib chiqishi to'grisida ilk bor fransuz turkologi O.Donner so'z yuritgan edi. Tomson O.Donnerning fikriga quydagicha munosabat bildirgan edi: "Unutmaslik kerakki, yozuvlarimizning davri bilan o'sha yozuvlarning davri orasida ming va undan ortiq yillar bor. Bu tur o'xshashliklarining odatda somon olovi singari yaltiroq, ammo o'tkinchi bo'lganini ham qabul etmoq kerak. Bunday ishoratlar chinakam boshqa yo'llar bilan aniqlangandan keyin boshqa alifbolar bilan qilinadigan qiyoslash yozuvning ildizini topish uchun asos bo'la oladi. Buning ustiga,

² Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 16-b.

³ Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi 2019. 18-b.



yenisey yozuvlarini hozircha bir chetga qo'yib avvalo faqat Urxun yozuvlari bilan mashg'ul bolish juda to'gridir. Zero, Yenisey yozuvlari alohida qiyinchiliklar paydo qilmoqda va ko'p shubhalarga sabab bo'lmoqdaki, bu yozuvga hozir to'xtalganimizda ham aslo yechilmasligini e'tirof etaman".⁴

Turkiy-run yozuvi hududiy chegaralanish jihatidan uchta katta guruhga ajratiladi:

- 1) Tis guruhi (Nad-Sent-Miklosh)
- 2) Yevroosiyo guruhi (Don, Kuban, Achchiqtosh, Isfara, Janubiy Yenisey)
- 3) Osiyo guruhi (Yenisey, Urxun, Talas).⁵

O'rxun yozuvi haqida juda ko'p to'xtalish va fikr yuritish mumkin.

Hozirgi kunda "uyg'ur yozuvi" nomi bilan mashhur bo'lgan bu yozuv qadimda turlicha nomlangan. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida "turkcha yozuv", Alisher Navoiy o'z maktublarining birida "turkcha xat", XIII asrda yashgan Puri Baho Jomiyning she'larida "uyg'ur xati", Ibn Arabshohning "Ajoib-ul maqdur fi-naqvoibi Taymur" asarida "uyg'ur xati" va "Fokihat-ul xulafo" asarida esa "mog'ul xati" nomini olgan. 1480-yilda Istanbulda "Hibbat-ul haqoyiq" ning Abdurazzoq baxshi tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmasida esa "mog'ul xati" deb atalgan. Uyg'ur alifbosida harfalar 18 ta ni tashkil etadi.⁶

Uyg'ur xatining yana bir afzalligi-matn talaffuzga moslab yozilgan. Misol uchun Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida Xorazm nomi Xvarzm deb yuritilgan. Arab izofasi arab xatlarida al- artikili bilan yozilgan, uyg'ur yozuvida esa bu talaffuzga moslangan. Xususan, "Hibbat-ul haqoyiq" uyg'ur yozuvida, "Hibbat al-haqoyiq" esa arab yozuvli matnlarda uchraydi.

Uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimlari quyidagilar:

- a) "Xuastuanift" ning qadimgi turkiy versiyasi;
- b) "Maytri simit" bitigi;
- c) "Oltin yorug'" asari;
- d) "Syuan-szan kechmishi" asari;
- e) Qadimgi turk she'rlari;
- f) Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni;

⁴ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2009. 46-b.

⁵ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2009. 47-b.

⁶ Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2009. 58-b.



g) Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asari.

Moniy yozuvi moniy dinning shakllanishi bilan bog‘liq. Moniy dini milodiy 247-yilda Eronda vujudga keladi. Uning asoschisi Moniy ibn Fatakdir. O‘sha davrdan boshlab Suriyaning Palmira shahrida qo‘llanilgan yozuvlar moniy yozuvi bilan bog‘liq. Keyinchalik ushbu yozuv din bilan birgalikda O‘rta va Markaziy Osiyoga kirib keladi va erazmizning VIII asrigacha uyg‘ur xoqonligining rasmiy yozuvi sifatida foydalanilgan.

Sug‘d yozuvi miloddan avvalgi III asrlarda oromiy yozuvi asosida shakllangan va milodning XI asrigacha sug‘dlarning milliy yozuvi hisoblangan. Turkiy xalqlar orasida uyg‘ur yozuvi sug‘d xati negizida shallangan degan nazariyalar ham mavjud.

Brahma yozuvi bog‘in yozuvi bo‘lib, sanskritcha alifbo asosida vujudga kelgan. Buddizm orqali Turon zaminiga kirib kelgan.

Suryoniy yozuvi ham oromiy yozuvi asosida shakllanib vujudga kelgan. Nasroniylik VII-VIII asrlarda Hirot, Samarqand, Qoshg‘ar, Hindiston, G‘arbiy Yevropaga keng tarqallgan edi. Shu orqali suryoniy yozuvi turk nasroniylari orasida ham qo‘llangan. Kelib chiqishi milodning boshlariga borib taqaladi. Bizgacha uyg‘ur va suryoniy yozuvida nasroniylarning turkiy yodnomlari yetib kelgan.⁷

Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvlar shu bilan bir qatorda qadimgi turkiy tillar keng miqyosda o‘rganib tadqiq etilmoqda. Bu ishlarning barchasi faqat yurtimiz tarixi emas balki dunyoning tarixini o‘rganishga yo‘l ochadi. Zero, birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘qdir!”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.
2. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til– Toshkent: O‘qituvchi, 1982.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2008.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2009.
5. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy yozuvlar. – Toshkent: 1995.
6. www.arxiv.uz

⁷ Abdishukurov B., Qadimgi turkiy til. -Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. 29-b.

